

**ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDA
SHARTNOMA
№360093**

Shahrisabz tumani

«17» yanvar 2022yil.

Shahrisabz shahar Elektr tarmoqlari korxonasi keyingi o'rirlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbari T.Toshev nomidan, bir tomonidan va Shahrisabz tumani Obodonlashtirish boshqarmasi keyingi o'rirlarda "Istemolchi" deb yuritiladi, O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi rahbari J.Turdiev nomidan, ikkinchi tomonidan mazkur shartnomani quydagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMANING MOHIYATI

1.1.Ushbu shartnoma bo'yicha "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ning buyurtmanomasiga muvofio' ulangan tarmoq orkali elektr energiyasi yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi, "Iste'molchi" esa mazkur' shartnomaning 1- ilovasida belgilangan kuvvatdagi elektr energiyasini kabul kilib olish va ilova kilinadigan jadval asosida byudjetda ajratilgan mablaglar hisobidan xak tulashni uz zimasiga oladi.

1.2.Byudjet tashkilotining yil davomida smeta harajatlariga kiritiladigan uzgarishlar doirasida xizmat kursatuvchi, xizmat oluvchilar tomonidan uzaro kelishilgan holda shartnoma summasiga uzgartirishlar kiritishga xaklidirlar.

1.3.Foydalanadigan elektr energiyasint yillik hajmi **15.554 kVt.s** tashkil kiladi.

II.TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Iste'molchi"ning huquqlari:

- a)"Ta'minotchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga yetkazib berishni;
- b) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat kursatkichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda saklashni;
- v) elektr energiyasi iste'molining oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdor doirasida joriy chorak mobaynida 2 marta (1- va 2-oylarda ular tugagungacha 10 kundan kechikmay) kayta taksimlanishini "Ta'minotchi"dan talab qilishga haqlidir.
- g) elektr tarmoqlarining bulinish chegarasida zarur sifatga muvofik bulmagan elektr energiyasi yetkazib berilganda "Iste'molchi" uz xoxishiga kura;
- muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bulmagan holda yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni va haqini tulashni rad etishga
- g) "Ta'minotchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani koplanishini talab kilishga xaklidir.'

2.2."Iste'molchi"ning majburiyatları:

- a) Hisobga olish joyi elektr tarmoqlarning "Ta'minotchi" bilan balans mansubligi bo'yicha bulinish chegarasiga o'tkazilsin (iste'molning hisobga olinishi bulinish chegarasida amalga oshirilmagan vaziyatlarda);
- b) elektr tarmoqlari, asbob uskunalarining tegishli texnik xolatini va xavfsizligini ta'minlash;
- v) elektr energiyasini iste'mol kilishning urnatilgan tartibiga rioya kilish xamda elektr energiyasidan foydalanishda yuzaga keladigan avariyalar, yonginlar, elektr energiyasini hisobga olish asboblaridagi nosozliklar haqida "Ta'minotchi"ga xabar berish;
- g) reaktiv energiya ishlab chikaruvchi uskunalarining ish rejimiga rioya kilish shartnomaning;
- d) iste'mol kilinadigan elektr energiyasini hisobga olish asboblari va ularagini tamgalarining butligi va saqlanishini ta'minlash;
- y) ishlatalgan elektr energiyasi uchun to'lovlarini uz vaktida amalga oshirish.

2.3. "Ta'minotchi" ning huquqlari:

- a)"Iste'molchi"dan yetkazib beriladigan elektr energiyasi uchun oldindan tegishli xakni tulashini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uzil-kesil hisob-kitoblarni amalga oshirishni;
- b) shartomaga yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomaga muvofik yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni asossiz rad etish natijasida yetkazilgan zararni koplashni "Iste'molchi"dan talab qilishga haqlidir;
- v) uning vakili tegishli amal qilish muddati bilan shaxsiy guvoxnomasi mavjud bulganda elektr hisoblagichlarni kurib tekshiradi;
- g) ma'nnaviy jixatdan eskirgan elektr energiyasini induksion hisobga olish priborlarini reja asosida Davlat tekshiruvidan utkazmaydi xamda UzR Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 1 noyabrdagi 512-sonli Qaroriga muvofiq ularni zamonaviy elektron hisoblagichlarga almashtirilishini talab kiladi.

2.4.Ta'minotching majburiyatları;

- a)konun xujjatlariga muvofik ushbu shartnoma majburiyatlarinish uz muddatda bajarilishini ta'minlash;
- b) «Iste'molchi»ga shartnomada kursatijan miqdordagi elektr energiyasinn elektr tarmoqlarining bulinish chegarasiga yetkazib berish;
- v) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat kursatgichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda saklash;
- g) elektr energiyasining "Iste'molchi"ga uzlusiz ("Elektr uskunalarining kurilma koidalari" 1.2.17- bandi asosida) yetkazib berilishini ta'minlash;

- d) elektr tarmoklarini rejali ta'mirlashda elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bulgan uzilishlar tugrisida "Iste'molchi" kamida 3 sutka oldin ogoxlantirish;
- ye) elektr energiyasidan asossiz uzishga yul kuymaslik va "Iste'molchi"ga elektr energiyasi berishning rejadan tashqari tuxtilishi sabablarini xabar qilish;
- j) "Iste'molchi"ga elektr hisoblagichlarining amaldagi normativ xujjatlar talablariga muvofiq almashtirish muddatlarini xabar qilish;
- jj) joriy etiladigan cheklashlar haqida cheklashning joriy etilish hajmi va vaktini kursatgan holda 0,5 kun oldin xabar qilish;
- z) energiya tarifi uzunganda urnatilgan tartibda "Iste'molchi"ga bildirish.
- i) "Elektr energiyasidan foydalanish koidalari"ga (O'zR Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 27 yanvardagi 32-sonli Qaroriga 1-ilova), elektr energiyasi iste'molchilar va energiya ta'minoti tashkilotlari urtasida hisob-kitoblar tartibi to'g'risida Nizomga (UzR Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 noyabrdagi 511-sonli Qaroriga 2-ilova) rioya qilinsin.

III. ELEKTR ENERGIYaSINI NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Shartnomaning tuzilgan vaqtidagi umumiy yillik baxosi **6.999.300 (Olti million to'qqiz yuz tuqson to'qqiz ming uch yuz)** sumni tashkil etadi.

(sumda)

2022 yil jami	1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr
Byudjet	2.999.700	1.999.800	1.999.800	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Elektr energiyasi tarifi bir stavkali, ikki stavkali, tabakalashirilgan stavkada belgilanadi. (zarur bulmagani uchiriladi)
Shartnomaga bo'yicha yetkazib beriladigan elektr energiyasining tariflari beriladi.

3.2. Navbatdagi oy uchun yetkazib berish nazarda tutilgan resurslar hajmining oldindan 100 foizdan kam bulmagan miqdorida 25-sanasigacha tulik tulab beriladi.

3.3. Yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun to'lov pul utkazish yuli bilan hisob-kitob kilinadi. 1 (hisob-kitob kilish shakli kursatiladi)

3.4. "Iste'molchi"ning aybi bilan shartnomada **ko'rsatilgan** xajmlarga nisbatan elektr energiyasi kam iste'mol kilinganda tulangan avans mablaglari kaytarilmaydi, balki iste'mol kilingan elektr energiyasi uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

3.5. "Istemolchi" har oyda bulinish chegaralarida urnatilgan hisobga olish priborlari kursatkichlarini yozib oladi. Ushbu kursatkichlar asosida o'lchov transformatorlari koeffitsientlarini hisobga olgan holda iste'mol miqdori va foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lov summasi aniklanadi.

Beglilangan shakldagi hisobot "Ta'minotchi"ga 28-canasiga muddatda yuboriladi.

3.6. Hisob-kitob elektr hisoblagichi bo'linish chegarasida o'rnatilmagan takdirda elektr tarmogining balans bo'yicha tegishlilik chegarasidan elektr hisoblagich o'rnatilgan joygacha elektr energiyasi yo'kotilishi miqdori "Iste'molchi" bilan birgalikda hisob-kitob yo'li bilan aniklanadi va to'lov uchun "Iste'molchi"ga berilgan foydali elektr energiyasi bilan jamlanadi.

3.7. Taqdim etilgan belgilangan shakldagi hisobotga asosan "**Ta'minotchi**" "**Iste'molchi**"ga hisob-faktura yozib beradi. Har xil tarif guruhiga taaluqli bir necha ob'ektlarga ega iste'molchilar bilan hisob-kitoblar har bir tarif guruhiga urnatilgan hisobga olish priborlari kursatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi, lekin shuning bilan birga har bir ob'ekt bo'yicha bilib ko'rsatilgan bitta hisob-faktura yozib beriladi.

Qisman (tuliq xajmda emas) haq tulanganda, "Iste'molchi" to'lov xujjatida qaysi tarif guruhlari bo'yicha to'lov birinchi navbatda amalga oshirilayoganini ko'rsatishi kerak. Aks holda, "Ta'minotchi" tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

Elektr energiyasi iste'moli haqida hisobot taqdim etilmaganda, elektr ta'minoti tashkiloti shartnomaviy elektr iste'moli hajmi bo'yicha hisob-kitob oyiga keyinchalik amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilgan holda hisob-kitobni amalga oshiradi.

Ortiqcha to'langan mablag'lar qaytarilmasdan avans to'lovi tariqasida hisobga olinadi.

3.8. "Iste'molchi" tomonidan tegishli oyga yetkazib berilishi ko'zda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining 100 foizidan kam (oldindan to'lov miqdori kursatsilsin, lekin 100 foizdan kam bo'lmasin) bo'limgan miqdorida oldindan to'lov amalga oshirilganda elektr energiyasi har oyda yetkazib beriladi.

Yakuniy hisob-kitob esa 30 kun davomida (yakuniy hisob-kitob muddati ko'rsatilsin, lekin 30 kundan ortmasin) amalga oshiriladi. "Iste'molchi" da elektr energiyasi uchun 90 kundan ortiq (muddati yuqorida **ko'rsatilgan**) muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bulganda, avans to'lovi tarikasida tulangan mablaglar muddati o'tgan qarzdorlikni bartaraf etishga yo'naltiriladi va avans to'lovi tariqasida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi" bir necha tarif guruhiga ega bo'lsa, u oldindan to'lov hujjatida tarif guruhni bo'yicha elektr energiyasi summasi va yoki miqdorini ko'rsatishi kerak. Aks holda, "Ta'minotchi" tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

3.9. Uzil-kesil hisob kitob ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilmagan taqdirda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga elektr energiya berishni to'xtatadi (shartnomaning 5.5 bandida ko'rsatilgan "Iste'molchi"lar bundan mustasno). Bir vaqtning o'zida,

"Ta'minotchi" elektr energiyasi yetkazib berish dalolatnomasi asosida amalga oshirilgan to'lovlar summasini chiqarib tashlagan holda xizmat ko'rsatuvchi bank orqali hisobot oyida yetkazib berilgan elektr energiyasi summasiga aktsept bilan to'lov talabnomasi beradi.

IV. ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNI KABUL KILIB OLISH TARTIBI

4.1. Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Elektr energiyasini yetkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlar va hajmlarda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynidagi amalga oshiriladi. "Ta'minotchi" buyurtmanomalarini ruyxatdan utkazish daftarni yuritadi.

4.3. "Iste'molchi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor kilishga yoki undagi elektr energiyasini yetkazib berish miqdori va sanasini uzgartirishga haqlidir, bu xaqda "Ta'minotchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan joriy oy tamom bulishigacha kamida 10 kun oldin xabardor qiladi.

V. ELEKTR ENERGIYASI BERISHNI TUXTATISH VA UZIB QUYISH TARTIBI

5.1. Elektr energiyasi berishdagi uzilishlarga, elektr energiyasini berishni tuxtatish yoki cheklashga tomonlar kelishuviga muvofik yul kuyiladi.

5.2. "Iste'molchi" bilan kelishmasdan va uni ogoxlantirmsandan, birok unta darxol xabar bergan holda elektr energiyasi berishni vaktincha uzib kuyish, tuxtatish yoki cheklashga "Ta'minotchi" tizimida avariyaning oddini olish yoki uni tugatish uchun kechiktirib bulmaydigan choralarни kurish zarur bulgan xollarda yo'l quylidi.

5.3. Elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimi buzilganda;
shartnomada nazarda tutilgan elektr energiyasi hajmi kiymatining kamida 100 foizini oldindan to'lamaganda;
hisob-kitob oyi tamom bulgandan keyin 30 kun mobaynidagi iste'mol kilingan elektr energiyasi uchun to'lanmagan qarzi mavjud bo'lganda;

"Iste'molchi" elektr energiyasi tarmogiga o'zboshimchalik bilan ulanganda yoki quvvat shartnomada kelishilgan miqdordan oshirilganda;

"Uzstandart" agentligi organlari tomonidan tekshirilgan iste'mol qilinadigan energiyani hisobga olish priborlariga ega bo'limganda;

"Ta'minotchi"ning vakili soat 8.00 dan 20.00 gacha bulgan davr mobaynidagi hisoblash priborlarini kurishga asossiz qo'yilmaganda,
"Ta'minotchi" elektr energiyasi berishni tuxtatib quyish huquqiga ega buladi.

5.4. "Iste'molchi"dan hisobga olish pribori bulmaganda hisobga olish pribori "Iste'molchi"ning aybi bilan shikastlanganda;
hisobga olish priborlarini ishga tushirish sxemasi uzgarganda yoki hisoblagichdan tashkari nagruzka ulanganda;
foydalanganlik uchun xak belgilangan muddatlarda tulanmaganda "Iste'molchi" 1 kun oldin ogoxlantirilib elektr energiyasi tarmogidan uzib kuyiladi;

5.5. Elektr energiyasini uzib kuyish texnogen va avariya okibatlariga olib kelishi mumkin bulgan, aloxida xavf va uzlusiz texnologiya jarayonga ega bulgan (Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 1-noyabrdagi Elektr energiyasidan foydalanganlik uchun hisob-kitob kilish mexanizmini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari tugrisida" gi 511-sون Karor nizoming 1-ilvasidagi ruyxatga kiritilgan) iste'molchilarining gulov muddati o'tgan qarzlarini vujudga kelgan takdirda xaki tulanmaganligi uchun elektr energiyasi berilishini cheklash, belgilangan tartibda energiya bilan ta'minlashning texnologik va avariiali brongacha, tulik uzib kuyish esa fakat sud karoriga kura amalga oshirilishi mumkin. "Ta'minotchi" va "Iste'molchi" tomonidan imzolangan texnologik va avariiali bronni dalolatnomalari shartiomaning uzviy kismi hisoblanadi.

VI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

6.1. Elektr energiyasi yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, 5 foizdan kup miqdorda elektr energiyasi yetkazib berilmagan xollarda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga muddati utkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan kismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, birok penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan elektr energiyasi kiymatining 50 foizidan ortiq bulmasligi kerak. Penya tulanishi "Ta'minotchi"ni shartiomaning zarur darajada bajarilishidan va elektr energiyasi yetkazib berish kechiktirilganligi yoki tuliq yetkazib berilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.2. Yetkazib berilgan elektr energiyasi haqini o'z vaqtida to'lamagani uchun "Iste'molchi" "Ta'minotchi"ga utkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov summasining 0,4 foizi (maxsus tartibga kura elektr energiyasi beriladigan korxonalar uchun 0,2 foiz) miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

6.3. "Iste'molchi"ning taklifiga kura mo'ljallanayotgan uzgartirishlarga 10 kundan kech bulmagan muddatda kiritilgan elektr energiyasining shartnomadagi xajmlarining uzgartirilishi elektr energiyasini kam olish yoki ortiqcha olish deb hisoblanmaydi.

6.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

VII. NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

7.1.Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko'ra ularni sudgacha hal etish yuzasidan tegishli choralarni ko'radilar.

Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita sudga murojaat kilishga xam haqlidir.

7.2.Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l quyilmaydi, qonun xujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

VIII. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIK DAN OZOD ETISH

8.1. Tomonlardan biri shartnomani yengib bulmaydigan kuch, ya'ni favkulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, suv toshkini, va boshka tabiiy ofatlar) (fors-major) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

IX. SHARTNOMANING AMAL KILISHI

9.1. Shartnomaning amal kilish muddati 2022 yil «17» yanvardan 2022 «31» dekabrgacha.

9.2.Mazkur shartnomaga uzgartirishlar (kushimchalar) tomonlar imzolagan paytdan keyin bajarilishi kerak.

9.3.Mazkur shartnomaga har kanday uzgartirish va kushimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil kilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan xakikiy hisoblanadi.

9.4. Tomonlar o'rtaсидаги муносабатлар ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan taqdirda to'xtatiladi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1.Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga kura yoki boshqa tomon shartnomalarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor kilinishi mumkin.

10.2.Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, tomonlarning har biriga bir nusxadan koldiriladi. Shartnomaning har ikkala nusxalari teng yuridik kuchga ega.

XI. TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

«Ta'minotchi»

Shahrisabz tumani Elektr tarmoqlari korxonasi

Manzil: Shahrisabz tumani Ipak yo'li ko'chasi 103

Tel/faks: 522-79-55

H/R: 22636000800177786349

Bank: O'zsanoatqurilishbank Qarshi filiali

MFO:00854

STIR: 200666494

OKONX: 11170



T.Toshev

Rahbar:

«Iste'molchi»

Shahrisabz tumani Obodonlashtirish boshqarmasi

Manzil: Shahrisabz shahar Aspijallob 76

Tel/faks: +99875-522-40-38

sh/x.r: 100022860102457064200110003

STIR: 206933094 OKONX: 90211

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

G'aznachiligi

G'azna x/r: 23402000300100001010

Bank nomi Markaziy bank Toshkent shahar bosh
Boshkarmasi hisob-kitob kassa markazi

MFO: 00014 INN: 201122919





J. Turdiyev


Rahbar:

2022 yil «17» yanvar dagi
№360093 sonli shartnomaga 1-ilova

Shahrisabz shahar Elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan 2022-yil davomida yetkazib beriladigan elektr energiyasi quvvati:

Oylar	O'lchov birligi	Miqdori (kvt)	Narxi	So'mmasi
Yanvar	kvt	6.666	450	2.999.700
Fevral	kvt	4.444	450	1999.800
Mart	kvt	4.444	450	1999.800
1-chorak jami:		15.554		6.999.300
Aprel				
May				
Iyun				
2- chorak jami:				
Iyul				
Avgust				
Sentabr				
2- chorak jami:				
Oktabr				
Noyabr				
Dekabr				
4- chorak jami:				
Hammasi 2022-yil:		15.554.		6.999.300

Shahrisabz shahar Elektr tarmoqlari
boshlig'i:

(imzo)  (F.I.SH.)
M.O'

Shahrisabz tumani Obodonlashtirish
boshqarmasi boshlig'i:

(imzo)  M.O' (F.I.SH.)
J. Turdiyer

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

1. Loyihaning turi – shartnoma.
2. Loyihaning nomi – Shahrисабз шаҳар elektr tarmoqlari korxonasi va Shahrисабз tumani obodonlashtirish boshqarmasi o'rtasida tuzilgan 6.999.300 (olti million tuqqiz yuz tuqson tuqqiz ming uch yuz) so'mni tashkil etadigan elektr energiyasi yetkazib berish va undan foydalanish to'g'risida shartnomasi.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana – Shahrисабз tumani obodonlashtirish boshqarmasi, 2022-yil 20-yanvar.
4. Loyiha bo'yicha taklif va (yoki) e'tirozlar: yuq

XULOSA: Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Shahrисабз туман юридик хизмат ко'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti**



F.F.Karimov

2022-yil 20-yanvar